“BAHOR” ANSAMBLI TARIXINING YANGI SAHIFALARI

Rajabova Mohlaroy
“Xoreografiya jamoalari rahbari” ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi,

Po‘lat Tashkenbayev
Ilmiy rahbar: san’atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.21877774

O‘zbek tilida
Annonatsiya:
Ushbu maqola ‘‘Bahor’’ ansambli tarixining yangi bosqichlari, uning zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari, repertuaridagi yangilanishlar hamda milliy raqs san’atini asrab-avaylash va rivojlantirishdagi faoliyati tahlil qilinadi. Shuningdek, ansamblning bugungi kundagi ijodiy izlanishlari va xalqaro madaniy maydondagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar:
Bahor ansambli, ansambl tarixi, milliy raqs, o‘zbek san’ati, madaniy meros, zamonaviy rivojlanish, xoreografiya.

Русский язык
Аннотация:
В статье рассматриваются новые страницы истории ансамбля «Бахор», современные направления его развития, обновление репертуара, а также деятельность коллектива по сохранению и развитию узбекского национального танцевального искусства. Освещается роль ансамбля в современном культурном пространстве и его творческие достижения.

Ключевые слова:
Ансамбль «Бахор», история ансамбля, национальный танец, узбекское искусство, культурное наследие, современное развитие, хореография.

English
Abstract:
This article explores the new chapters in the history of the Bahor Ensemble, focusing on its modern development, repertoire renewal, and contribution to preserving and advancing Uzbek national dance art. It also discusses the ensemble's creative achievements and its role in today's cultural landscape.

Keywords:
Bahor Ensemble, ensemble history, national dance, Uzbek art, cultural heritage, modern development, choreography.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng san’at va madaniyatning barcha sohalarida, xususan, milliy raqs va xoreografiya san’atida, muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tish davrining murakkab sharoitiga qaramay, davlatimiz tomonidan

raqs san'atini rivojlantirish va targ'ib etish, qadimiy an'analarni davom ettirish, yosh ijodkorlarni qo'llab - qo'vvatlash va ijtimoiy himoya qilish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

2020 yil 4 fevral kuni O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev "Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi Qarorga imzo chekdi.

Mazkur Qarorda ta'kidlanganidek, xalqimizning ma'naviy saviyasi va estetik tarbiyasini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega bo`lgan raqs san'atini har tomonlama rivojlantirish, yosh avlodni milliy va jahon raqs san'atining namunalaridan keng bahramand etishni zamonning o`zi talab etmoqda.

2020 yil 4 fevral kuni milliy raqs san'atiga oid yana bir xujjat - O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi Qarori ham qabul qilindi.

Qarorga ko`p asrlik boy va betakror madaniyatimizning ajralmas qismi bo`lgan milliy raqs san'atining xalqimiz ma'naviyati, badiiy-estetik qarashlarini yuksaltirish, yosh avlodni milliy qadriyat va an'analarimizga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi o`rni va ahamiyati tobora ortib borayotganligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Bu esa ushbu san'atni bugungi kunda jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida ro`y berayotgan tub o`zgarishlarga mos holda rivojlantirish, milliy raqsning turli yo`nalish va namunalarini, mamlakatimizning turli mintaqalarida shakllangan mumtoz raqs maktablarini qayta tiklash va kelajak avlodlarga bezavol yetkazish hamda bu boradagi ta'lim-tarbiya, targ`ibot ishlarini kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Qarorda ta'kidlanganidek, nafaqat mamlakatimizda, balki dunyo miqyosida ham mashhur bo`lgan Mukarrama Turg`unboyeva nomidagi "Bahor" ansambli o`zining qariyb 30 yillik faoliyati davomida o`zbek milliy raqs san'ati rivojida o`chmas iz qoldirdi. Biroq mustaqillikning dastlabki yillarida "Bahor" ansamblining ijodiy faoliyati to`xtab qoldi.

Shularning barchasini hisobga olgan holda milliy raqs san'atida professional badiiy jamoalar faoliyatini kengaytirish, iqtidorli yoshlarni izlab topish va ularni tarbiyalash, baletmeysterlar va balet artistlarining yangi avlodini shakllantiradigan ijodiy laboratoriyalarni tashkil etish, ularning malaka va tajribasini oshirish, shuningdek, o`zbek raqs san'atining "oltin fondi"ni yaratish va boyitish, xalqaro nufuzini yanada oshirish va keng targ`ib etish maqsadida Madaniyat vazirligi huzurida davlat muassasasi shaklida "Mukarrama Turg`unboyeva nomidagi "Bahor" davlat raqs ansambli" tashkil etildi.

Mukarrama Turg`unboyeva nomidagi "Bahor" davlat raqs ansamblining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

O`zbekistonda raqs san'atini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijodiy maktablarga xos an'analarni, mohir baletmeysterlar, balet artistlari merosini tiklash;

milliy raqs san'atining mumtoz va zamonaviy ijro namunalari "oltin fondi"ni yaratish;

xalqimiz, xususan, yosh avlodni milliy raqs san'ati haqidagi nazariy va amaliy bilimlar bilan keng tanishtirish orqali ularning qalbi va ongida milliy o`zlikni anglash, ajdodlar merosiga hurmat tuyg`usini, yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish;

raqs va xoreografiya san'ati sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etishda ishtirok etish, iste'dodli yosh baletmeysterlarning samarali faoliyat ko`rsatishi uchun sharoitlar yaratish;

milliy raqs va xoreografiya san'ati sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning natijalari asosida zamonaviy raqs kompozitsiyalarini sahnalashtirish;

milliy raqs san'atini mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda keng targ`ib qilish maqsadida Mukarrama Turg`unboyeva nomidagi "Bahor" davlat raqs ansamblining milliy hamda jahon xalqlari

raqslaridan iborat dasturlari asosidagi gastrol-konsert faoliyatini yo`lga qo`yish. SHunday qilib, mazkur Qaror “Bahor” ansambli tarixida yangi davrni boshlab berdi.

Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Bahor” davlat raqs ansambli milliy raqs san’atimizning asosi va ansambllar gultoji hisoblanadi. Uning asoschisi, dunyoga mashxur o‘zbek san’ati ustasi raqqosa, baletmeyster, pedagog M.Turg‘unboyeva hisoblanib, 1955-yil qo‘l ostida yig‘ilgan 12-nafar Toshkent davlat xoreografiya bilim yurti qizlaridan, o‘z raqs jamoasini yaratdi. 1957-yilda esa ushbu guruh asosida “Bahor” ansabmlini tuzadi. Ushbu yilda ansambl jahon yoshlari va talabalari festivalining oltin medalini qo‘lga kiritishadi. Oradan ko‘p vaqt o‘tmay 1960-yilga kelib ansabmlga “Bahor “davlat raqs ansambli nomi berildi.

Ansambl raqqosalarining mahoratini oshirish, yangi raqs va xoreografik dasturlarini yaratish, badiiy saviyani hamisha baland saqlash, gastrol safarlarini yuqori darajada o‘tkazish, o‘zbek raqs merosini o‘rganish hamda jahon xalqlari raqslarini sahnalashtirish kabi masalalarni yaxshilash ustida, umrining oxiriga qadar ishladi.

Ansambl uchun 15 ta konsert dasturi tuzdi. ”Bahor”, ”Ufori sanam”, ”Qo‘g‘irchoq”, ”Farg‘ona ruboiysi”, ”Munojat”, ”O‘zbek valsi”, ”Gulnoz”, ”Aylanma”, ”Beshqarsak”, ”G‘ayratli qiz”, ”Yetti go’zal”, ”Toshkent piyolasi”, ”Shabadalar”, ”Alyor”, ”Bayot”, “Zang”, ”Sho‘x qiz”, ”Xorazmcha”, ”Paxta”, ”Katta o‘yin”, ”Uchrashuv”, ”Lazgi”, ”Dildor”, “Dilbar” kabi umumiy, yakkaxon va duet raqslar yaratildi .Ayniqsa ansambl repertuaridagi yosh raqqosalar tomonidan ijro etilgan, ”Pilla”, ”Gulsara”, ”Bahor” shuningdek M.Turg‘unboyeva ijrosidagi “Tanovor”, ”Andijon polkasi” raqslari chet el tomoshabinlari hayratiga va o‘zbek milliy raqs san’atining tanilishiga turtki bo‘ldi.

Ansambl repertuari muntazam ravishda yangi raqslar bilan boyitilib, Farg‘ona, Namangan, Andijon, Buxoro, Toshkent, Samarqand, Xorazm kabi hududlarni raqslari sahnalashtirildi. SHunindek, ansambl jahon xalqlari raqslari jumladan: Xind, Pokiston, Birma, Yaponiya, Korea, Arab, Turk, Afg’on, Kuba, Vengriya, Vetnam, Chexia raqslarini ham o‘z dasturiga kiritdi. Yillar davimida boyib borgab ansambl repertuari 200 dan ortiq yakka va ommaviy raqslarga ega bo‘ldi.

Ansambl dunyoning ko’plab mamlakatlarida bo‘ldi. Shu jumladan, Xitoy, Hindiston, Kavkaz davlatlari, Marokash, Jazoir, Pokiston, Afg‘oniston, Arab mamlakatlari, Janubiy Korea, Yaponiya, Liviya, Malaziya, Tunis, Rossiya mamlakatlarida gastrol safarlarida bo‘ldi. Ansabml rivojida badiiy rahbarlarning o‘rni yuqori bo‘ldi. Misol uchun: M.Turg‘unboyeva davrida (1957-1979) o‘zbek raqsi sahnaviy ko‘rinishi yaratilib, yetakchi sahna artistlari yetishib chiqdi. Qunduz Mirkarimova (1979-1988) rahbarlik davrida esa ansambl repertuari yanada boyib, raqslar yangi talqinda ijro etila boshladi. Ravshanoy Sharipova (1988-1990) rahbarlik yillari oz bo‘lishiga qaramay ansambl hayotini rang-barang bo‘yoqlarga to‘ldirdi. Ma’mura Ergasheva (1990) ansamblning tubdan yangiliklar bilan rivojlanishiga, dunyo kezishiga, xalq orasida “Bahor” ansamblining o‘rnini yuqori cho‘qqilarga olib chiqishga sababchi bo‘ldi.

Ansamblda musiqa rahbari sifatida Baxtiyor Aliyev 1965-yildan buyon faoliyat yurutib, ansabml tashkilotchilaridan biri bo‘ldi. Shuningdek ansamblining dastlabki ijodkorlaridan Z.Rahmatullayeva, D.Kerimova, N.Atamanova, T.Yunusova, A.To’laganova, D.Abdullayeva, N.Bashirova, E.Rasulxo’jayeva, K.Rahmatullayeva, N.Alimboyeva kabi raqqosalar, B.Aliyev, R.Hamdamov, E.Karimov, Q.Dadayev, R.Akbarbekov, O.Rizayev, S.To’xtasinov, B.Xoliqov, K.Nosirov, K.Komilov singari sozandalar hamda O.Matyoqubov kabilarning misol keltirsak bo’ladi.

“Bahor” ansamblining qayta tiklanishi raqs ahli uchun olamshumul voqea bo‘ldi. Bu voqea nafaqat o‘zbek, balki xorijlik o‘zbek san’ati muhlislari tomonidan ham katta xursandchilik bilan kutib olindi.

Ansabml tiklanganiga 5-yil bo‘lgan bo‘lsa, shu qisqa vaqt mobaynida “Bahor“ davlat raqs ansabmli Fransiya, Italiya, Turkiya, Birlashgan Arab amirliklari, Rossiya va boshqa ko’plab mamlakatlarda o’tkazilgan ijodiy tanlovlar “O‘zbekiston madaniyati kunlari”da muvaffaqiyatli

ishtirok etdi. 200 dan ortiq raqslarning 30 foizini qayta tiklashga muvofiq bo‘ldi. Hozirgi kunda o‘zbek milliy raqs san’atining rivojlanishi, boy madaniy merosni saqlash va targ‘ib qilishda katta hissa qo‘shayotgan Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Bahor “davlat raqs ansabmlining bir bo‘lagi ekanligimdan faxrlanaman.

Ansambl ichki muhiti insonni tarbiyalovchi va ruhiyatiga iliqlik baxsh etuvchi raqslar va ohanglardan iborat bo‘lib, o‘zining ko‘p muhlislariga ega. Ustoz san’atkor asos solgan maktabni davom ettirish, asl san’atni tiklashda jahon uzra targ‘ib etishda biz yosh raqs ustalaridan mehnat va san’atga bo‘lgan sodiqlik talab etiladi. O‘ylaymanki, ustozlar maktabini asrlar osha targ‘ib etishimiz va dunyoga mashhur ansambl sifatida namoyon qilishimiz, biz uchun chinakkam faxrdir. Bu yo‘lda esa ustozlarimiz bizning madadkorimiz va boshimizdagi tojimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avdeyeva L.A. O’zbek milliy raqs san’ati tarixidan. – T.: 2001.
2. Sagatov K., Muxamedova M. O’zbekiston madaniyati va san’ati fidoyilari. – T.: Navruz, 2019.
3. Muxamedova M.A. Jahon va o’zbek xoreografiya san’ati tarixi. – T.: Fan dunyosi, 2021.